

**EXINOKOKKOZ VA ALVEOKOKKOZ KASALLIKLARI USTIDAN  
EPIDEMIOLOGIK NAZORAT**

**Rasulov Sh.M.**

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrası**

Insoniyat XXI asrga qadam qo‘ygan bir davrda, fan va texnikadagi erishilgan yutuqlarga qaramasdan, aholi orasida ba‘zi bir yuqumli kasalliklar ko‘plab qayd qilinmoqda, ba‘zilari esa batamom tugatilgan emas. Yuqumli kasalliklarni, jumladan exinokokkozni aholi orasida batamom tugatish yoki yanada kamaytirish sanitariya-epidemiologiya va veterinariya sohasida xizmat qilayotgan mutaxassislarning bilim saviyasiga va ularning ish faoliyatiga bevosita bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida tibbiyot mutaxassislari exinokokkoz kasalligining tarqalganlik darajasi, epizootologiyasi, epidemiologiyasi, epidemiologik nazorati va uning oldini olish chora-tadbirlarini chuqur bilishlarini taqozo qiladi.

JSST ma‘lumotlariga ko‘ra butun dunyoda vafot etayotgan 50 million kishining 16 millionidan ko‘prog‘i o‘limining sababi yuqumli va parazitlar kasalliklar hisoblanadi.

Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi vaqtda exinokokkoz bilan yer yuzida 1 milliondan ortiq kishi kasallangan, bunda ba‘zi endemik va noendemik mintaqalarda ushbu xastalik bilan kasallanish ko‘rsatkichi 200-martadan ko‘prog‘i farq qiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda exinokokkoz bilan kasallanish ko‘rsatkichlarining o‘sishi va kasallikning geografik chegarasining kengayishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda dunyoda ekologik va antropogen omillar ta‘sirida hayvonlarning asosiy sestodozlaridan biri hisoblangan exinokokkoz kasalligi dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida tarqalgan bo‘lib, epizootologik va epidemiologik ahamiyat kasb etuvchi xavfli kasallik hisoblanadi.

Exinokokkoz ayniqsa qo‘ychilik bilan shug‘ullanuvchi qishloq mintaqalarida ko‘p uchraydi, u hududlarda itlar so‘yilgan qo‘ylarning ichki organlarini iste‘mol qilishi bunga asosiy sabab hisoblanadi. It go‘shiti odam ovqat ratsionining bir qismini tashkil etuvchi yer sharidagi mintaqalarda ushbu kasallik juda keng tarqalgan.

O‘zbekiston Respublikasi exinokokkoz bo‘yicha endemik hududga kiradi. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, kasallanish ko‘rsatkichi har 100 000 aholiga 6-9 kishini tashkil etadi. O‘zbekistonda har yili exinokokkoz bilan bog‘liq 4000 ga yaqin jarrohlik amaliyotlari amalga oshiriladi, konservativ davolanuvchi bemorlarning

soni esa ma’lum emas. Kasallik respublikaning barcha hududlarida ro‘yxatga olingan.

Exinokokkoz ko‘proq, uy hayvonlari bilan muloqotda bo‘luvchilarga, shu jumladan cho‘ponlarga, sut sog‘uvchilarga, mol boquvchilarga, fermerlarga, it boquvchilarga ko‘proq yuqqanligi aniqlandi. Maktab yoshidagi o‘g‘il bolalar orasida kasallik qo‘proq qayd qilingan. Buning sababi ular ko‘pincha kattalar bilan mol, qo‘y boqishda va ularni parvarish qilishda, itlar bilan muloqotda bo‘lishi bilan bog‘liq. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lganlar orasida serologik va immunologik tekshiruv natijalari ham ularning qonida exinokokka qarshi antitelolar titri birmuncha yuqoriligi aniqlandi.

JSST mutaxassislarining ta’kidlashicha, har bir yuqumli kasallikning oldini olish va davolash bo‘yicha tuzilgan dasturlarni tadbiq etishda, epidemiologik nazoratni samarali amalga oshirishdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. V.I.Pokrovskiyning (2008) fikricha, epidemiologik nazoratning mohiyati, yuqumli kasalliklarning profilaktikasi va unga qarshi kurash tizimini ma’lumotlar bo‘yicha almashinuvidir.

B.L. Cherkasskiyning (2001) fikricha, zoonozlarning epidemiologik nazorati, ko‘p qirrali bo‘lib, kasallikni dinamik o‘rganish, kasallikni faqatgina operativ nazorat qilibgina qolmasdan, qo‘zg‘atuvchining ekologiyasi, biologiyasi va arealini chuqur tekshirishdir. Epidyemiologik nazoratning nazariy va uslubiy negizi bo‘lib, hamma tizimning ko‘p omilli xarakteri va epidemik jarayonning funksional elementi hisoblanadi.

Exinokokkoz va alveokokkoz holatlari aniqlanganda ularni ro‘yxatga olish va statistik hisobot talablariga ko‘ra qayd etiladi. Tibbiyot xodimlari, birinchi navbatda jarrohlar, terapevtlar, rentgenolog va nevropatologlar tomonidan exinokokkoz kasalligini aniqlansa shoshilinch xabarnoma (058/h.sh.) to‘ldiriladi va hududiy Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari (bo‘limlari)ga yuboriladi. Har bir aniqlangan exinokokkoz bemorlari DPMda 060/h.sh. jurnaliga qayd etiladi. Aniqlangan bemorlarning hammasi “D” hisobga olinadi, 030/h.sh. to‘ldiriladi va jarrohlar tomonidan keyingi holati kuzatuvga olinadi. Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalari tomonidan aniqlangan holat 2-shakl “Yuqumli va parazitlar kasalliklar hisoboti”ga kiritiladi. Exinokokkoz va alveokokkoz kasalliklari ustidan epidemiologik nazorat maqsadida parazitologlar DPMdagi tibbiy hujjatlarni tahlil qiladi: “Ambulator tibbiy karta” (025/h.sh.), “Shifoxonadagi bemorning tibbiy kartasi” (003/h.sh.), “Yakuniy (aniq) tashxislarni qayd etish uchun statistik talon” (025-2/h.sh.), operatsiyalarni qayd qilish, operatsiya jarayonida olingan biopsiya va autopsiya namunalarini tekshiruv natijalari, organik operatsiya chiqindilarini yo‘qotish jurnallari. Operatsiyadan so‘ng qolgan exinokokk kistalari qoldiqlari 2015-yil 2-fevraldagi «Respublika

DPMLarida chiqindilarni yig‘ish, saqlash va yo‘qotish» to‘g‘risidagi 0317-15-sonli SanMvaQ ning 4.25.punkti asosida yo‘qotiladi.

Aniqlangan exinokokkoz va alveokokkoz holatlari o‘tkazilgan operatsiyalar soniga, klinik tekshirilgan tashxislar autopsiyalarini foiz hisobi, birlamchi tashxis qo‘yilgan sana va og‘ir klinik ko‘rinishlarning boshlanish sanasiga nisbatan olinadi. Kasalliklarga qarshi o‘tkazilgan chora-tadbirlarni samarasini baholashda exinokokkoz o‘chog‘ida tashqi muhit obyektlarini turli yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan sanitariya gelmintologik nazorati o‘tkaziladi.

